



## Mahbub UL-Qulub's Crimes

Abdiraupova Z.A.

Teacher of native language and literature at general secondary school No. 11  
under MMTB, Ohangaron district, Tashkent region

[zarnigorabdiraupova3@gmail.com](mailto:zarnigorabdiraupova3@gmail.com)

+998942186891

**Annotation:** This article analyzes the criticisms in the work "Mahbub ul-qulub" (Wisdom and stories loved by the heart), written in a didactic spirit, which is a rare example of classical literature. The advice and reprimands on various topics are revealed through the purposes of Alisher Navoiy.

**Key words:** didactics, pand-nasixat, tanbex, fasl, pedagogic.

## “Mahbub UL-Qulub” Tanbehlari

Abdiraupova Z.A.

Toshkent viloyati Ohangaron tumani MMTB tasarrufidagi 11-sonli umumiyl  
o'rta ta'lim mакtabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

[zarnigorabdiraupova3@gmail.com](mailto:zarnigorabdiraupova3@gmail.com)

+998942186891

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mumtoz adabiyotning nodir namunasi sanalgan didaktik ruhda yozilgan “Mahbub ul-qulub” (Qalba mahbub hikmatlar va hikoyatlar) asaridagi uchinchi; “Har xil foydali maslahatlar va misollar” deb nomlangan uchinchi qismidagi ayrim tanbehlар tahlil qilinadi. Undagi turli mavzulardagi tanbehlар Alisher Navoiyning misollari orqali ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** didaktik, pand-nasixat, tanbeh, fasl, pedagogik.



**Аннотация:** В данной статье анализируются критические замечания в произведении «Махбуб ул-кулуб» («Мудрость и повести, любимые сердцем»), написанном в дидактическом духе, являющемся редким образцом классической литературы. Советы и выговоры на различные темы раскрываются через цели Алишера Навои.

**Ключевые слова:** дидактика, наставление, танбекс, фасл, педагогика.

Turkiy til va adabiyot taraqqiyotini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ulug' shoirning har bir satri, har bir zamonlar uchun bitmas-tuganmas ma'naviy boylik va olamshumul ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Alisher Navoiy hayotining so'nggida, oltmis yillik tajribasidan kelib chiqqan holda, ya'ni 1500 - yilda yozilgan pand-nasixat yo'nalishidagi "Mahbub ul-qulub" asari haqida so'z yuritilar ekan, hech ikkilanmasdan bu asarni turkiy tilning didaktik ruhida yozilgan pandnoma asari deyishimiz mumkin.

"Mahbub ul-qulub" asari kompozitsiyasini uch qismga bo'lnishi beziz emas; birinchi qismda haloyiqning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarning kayfiyati haqida yozilib, qirq fasldan iborat.

Ikkinchi qism; yaxshi fe'llar xosiyati va yomon fe'llar kasofati haqida bo'lib, bu bo'lim o'n bobdan iborat.

Uchinchi qism; har xil foydali maslahatlar va turli misollar (hikmatlar, tanbehlar) haqida bo'lib, u 127 tanbehdan tashkil topgan. Birinchi va ikkinchi qismida o'quvchiga hayotning turli tabaqadagi insonlari va ularning fe'l-atvorlari haqida ma'lumot berib, keyin tanbeh bera boshlagani ham beziz emas.

Tanbeh so'zining ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da tanbeh – 1. Nojo'ya xatti-harakat uchun beriladigan ta'zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo degan ma'nolarni anglatadi.

2. Tanbeh bermoq, koyish, o'git tarzidagi gap-so'z aytmoq degan ma'nolarda qo'llaniladi.<sup>1</sup> Bundan ko'rinish turibdiki, Asarnining uchinchi qismida Navoiyning asl maqsadi ochib berilgan. Unda jamiyatdagi har xil tabaqa vakillariga o'git beradi. Tanbehlar turli mavzularda bo'lib, "Olam va odam" tanbehi bilan

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. – "O'zbek milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti; 3-jild



boshlanib, "Shukr, fikr va umid" tanbehlari bilan yakunlangan. Ularni mavzu jihatidan ajratadigan bo'lsak, dunyoning ta'rifi, insonlarning ichki va tashqi olamidagi fazilatlar, yaxshi va yomon xislatlar, saxovat va karam, ishq, ilm olish, so'z haqida, tarbiyaga oid o'gitlar, ehsonning o'rni, do'stlik, safar hikmatlari va yana ko'plab mavzular haqida tanbehlar keltirilgan. Tanbehlarning asosiy qismi insonlarga pand-nasihat ruhida yozilgan bo'lib, ularni shu mavzuga mos ravishda hikoyatlar, baytlar, qit'alar, ruboilyar, masnaviyalar, va hadislardan namunalar berish orqali asoslagan. Quyidagi tanbehlarda hadisdan namunalar keltirilganligini ko'rshimiz mumkin. Masalan, "Ehson –ulug' ne'mat" nomli 9-tanbehida "Inson yaxshilikning quli", "Ehsonning mukofoti ham ehson" <sup>2</sup> oyati ham bunga misol bo'la oladi.

Navoiy do'stlik haqida tanbeh ham keltirishni joiz topadi. Asarning 30-tanbehida "Chin do'stlikning sharti" da shunday deyiladi: "*Kimki birov bilan do'st bo'lsa yoki do'stlik da'vosini qilsa, u o'ziga ravo ko'rmaganni, do'stiga ham ravo ko'rmasligi kerak. Ba'zi narsalarni o'ziga ravo ko'rsa ham, do'stiga ravo ko'rmasligi kerak...*" deb fikrni isboti sifatida qit'a beriladi

*Yol uldirki, har nechakim o'ziga*

*Istamas, yorig'a ham istamagay.*

*O'zi istarki, yor uchun o'lgay,*

*Ani munda sharik aylamagay.*

*Sharhi:*

*Yor uldirki, o'ziga ravo ko'rmaganni*

*Yoriga ham ravo ko'rmagay*

*O'zi yori uchun o'lmoqqa tayyor esa-da,*

*Lekin yorini bu ishga sherik qilmagay.<sup>3</sup> [118-bet]*

Yuqoridagi tanbehdha ko'rinish turganidek, insonlar hamisha do'stlariga sodiq va doim yaxshilik tilashi, o'z boshiga tushgan og'ir mashaqqatni do'stiga ravo

2. Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. – Toshkent:Sano – standart, 2018

1. Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. – Toshkent:Sano – standart, 2018. 11-bet



ko'rmasligini o'rgatadi. Bu esa do'st tanlashda har bir insonga kerak bo'lishi shubhasizdir.

Yana 37-tanbeha nazar tashlaydigan bo'lsak, unda "Ilm va boylik" haqida shunday deyilgan:

*Ilm o'rganmoq – dinni mustahkam qilmoq uchun, ammo boylik orttirmoq uchun emas. Saxovatsiz boy bamisol yomg'irsiz bulutga o'xshaydi. Ilmiga amal qilmagan olim esa ustiga kitob ortilgan hayvonga o'xshaydi.<sup>4</sup>*

Bu tanbehda, ilm o'rganish insonni faqatgina diniy bilimlarni mustahkamlashga yordam berishi mumkin, lekin, boylik orttirish uchun emas, saxovatsiz boyni yomg'ir yog'maydigan bulutga o'xshatadi. Ilmiga amal qilmagan olimni esa kitob ortilgan hayvonga o'xshatishi bejiz emas, chunki qancha kitob ortib yurgani bilan hayvon aqli bo'lib qolmasligini, olim odam o'z ilmini barchaga o'rgatishi va undan oqilona foydalanishi kerakligi aytilgan. Bunda Navoiy "yomg'irsiz bulut" va "kitob ortilgan hayvon" so'zlarini juda chiroyli o'xshatish qilgan va o'z o'rnida ishlata olgan. Aynan shu o'xshatishlar tanbehni ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Tanbehni yanada tushunarli bo'lishi uchun quyidagi baytdan foydalangan.

*Bayt:*

*Hammol nafis raxt ila gar ursa qadam,  
Yo'q naf' anga g'ayri muzd bir-ikki diram.*

*Sharhi hammol qimmatli yuk tashisa ham, unga bundan ish haqi sifatida bir-ikki chaqadan boshqa naf, ya'ni foyda tegmaydi.*

Navoiyning merosida NAFS g'oyasi a'llo darajada yoritiladi. Ochig'ini aytganda, bu buyuk sohibi qalam ijodida NAFS talqinlarini o'rganishga bir maxsus kitob bag'ishlasa ham, kamlik qiladi. "Mahbub ul-qulub" asarida ham NAFS haqida 43-tanbehida "Ikki yo'l" va 84-tanbehida "Nafs balosi" haqida so'z boradi. Muallif sarlavhaning o'zidayoq insonlarning eng birinchi dushmani ham nafs ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi:

---

1. Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. – Toshkent:Sano – standart, 2018. 122-bet



*"Ikki yo'l" deb nomlangan tanbehida shunday deyiladi: nafsingdan senga zulm yetsa, nadomat eshigini och va Tangri panohiga qoch. Va tavba etagiga qo'l urginda, shu tavba ustida mardonavor turgin. [43-tanbeh]*

*Sayyodning baliqqa qarmoq tashlamog'i, nafs muddaosini qondirmoq uchun. Baliqning qarmoqqa ilinmog'i ham xuddi shu balo uchun. [84-tanbeh]*

Undan tashqari tanbehtar ichida Qur'oni karimdan keltirilgan suralar ham o'rinni olgan. "Fil" surasi va "Qahf" surasi shular jumlasidandir. Bu suralarni keltirishdan maqsad, tanbeh tushunarli bo'lishi maqsadida shu iqtibosni berishni joiz topgan. Qahf "g'or" ma'nosini bildiradi. Bu surada boshqa qissalar bilan bir qatorda ajotib tarixiy voqe - As'hoba qahf qissasi bayon etilgan. Unda imonini saqlash uchun g'orga yashiringan yigitlar to'g'risida gap ketadi. Muso alayhissalom bilan Xizr hamda Zulqarnayn qissasi ham suradan o'rinni olgan. Qahf surasida mol-mulk maqtanishga arzigelik narsa emasligi, bu dunyo hayoti o'tkinchiligi bayon etilgan.<sup>5</sup> Bundan tashqari yana ko'plab tanbehtar turli mavzularda berilib, ularga turlicha yondoshilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini o'quvchi o'rganishda nafaqat o'sha davr ziddiyati, balki, tarixga ham bir nazar tashlashi, undagi pand-nasixatlarga amal qilishi mumkin. Tarixda Navoiy hayotida kimlar muhim o'rinni tutgani, o'sha davrdagi insonlarning fe'l-atvori qanday bo'lganligini bilishi va bugungi davr insonlari bilan solishtira olishi va o'quvchilarda taqqoslab, tahlil qilishni o'rgatish uchun muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, shu asnodda o'quvchi ikki xil davrni solishtirgan holda ham ongida saqlab qola oladi. "Mahbub ul-qulub"dagi tanbehtar orqali asarning tub mohiyati ochib beriladi. Uchinchi qism orqali turli tabaqa vakillarining yaxshi va yomon xislatlarini rivojlantirish uchun turli nasixatlar orqali to'la-to'kis ochib beriladi. Bu asar orqali Navoiyning o'z xalqi va uning kelajak avlodlari uchun befarq emasligi, jamiyat hayotini rivojlanishi, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashi va uning pandnomasi shaklida yozilishiga qaramasdan qiziqarli bayon etilganligi asarning ta'sirchanligi va o'qishliliginining oshishiga xizmat qiladi.

<sup>5</sup> Ziyovuddin Rahim, Qur'on – qalblar shifosi (qayta ishlangan uchinchi nashri); 152-bet.



**References:**

1. Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub. – Toshkent:Sano – standart, 2018
2. Ziyovuddin Rahim, Qur'on – qalblar shifosi (qayta ishlangan uchinchi nashri).
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – "O'zbek milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti; 3-jild.
4. Karimova, Z. (2023). New phenomena in the speech implementation of the concept of the homeland. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 134-141.
5. Каримова, З. (2021). How to understand that a teacher is a professional: 5 main signs. *Архив Научных Публикаций JSPI*.